

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIYOSIY PARTIYALARING SHAKLLANISHI TARIXI

*Baxtiyorava Elmira Bobirmirzo qizi*

*Andijon davlat universiteti "Tarix" fakulteti 301-guru talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abdullayev Bekzod Xusniddin o'g'li*

*O'zbekiston tarixi kafedrasasi o'qituvchisi*

**Abstrakt:** Jahon miqyosida demokratiyaning asoslaridan biri sifatida ko'ppartiyaviylikka amal qilishni nazarda tutishadi. Jumladan O'zbekistonda ham ushbu demokratiyaning muhim elementiga urg'u berishadi. Ushbu maqolada esa O'zbekistonda faoliyat olib borgan hamda olib borayotgan partiyalarning tarixi ilmiy-tarixiy manbalar hamda ommaviy axborot vositalari manbalari asosida ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Demokratiya, ko'ppartiyaviylik, siyosiy qarash, senat, qonunchilik palatasi.

**Аннотация:** Многопартийность считается одной из основ демократии в глобальном масштабе. В Узбекистане, например, подчеркивают этот важный элемент демократии. В данной статье история партий, действовавших и действующих в Узбекистане, освещена с научно-исторической точки зрения на основе научно-исторических источников и источников СМИ.

**Ключевые слова:** Демократия, многопартийность, политическое видение, сенат, законодательная палата.

**Abstract:** Multipartyism is considered one of the foundations of democracy on a global scale. In Uzbekistan, for example, they emphasize this important element of democracy. In this article, the history of the parties that operated and are operating in Uzbekistan is covered from a scientific-historical point of view based on scientific-historical sources and media sources.

**Key words:** Democracy, multipartyism, political vision, senate, legislative chamber.

### Kirish

Xalqaro miqyosda ko'ppartiyaviylikka dunyodagi barcha demokratik davlatlar amal qilib kelmoqda. Ushbu mamlakatlarning aksar ko'plari, jumladan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlar dunyodagi eng rivojlangan davlatlardan hisoblanadi. Shu jumladan O'zbekiston ham ushbu tamoyillarga qat'iy amal qilgan xolda rivojlanib bormoqda.

Partiya tarixi quyidagicha boshlangan edi. Odamlarning umumiyl manfaatlarini himoya qilish uchun katta guruuhlar yoki fraktsiyalar tuzish g'oyasi

qadimiydir. Aflatun respublikadagi Klassik Afinaning siyosiy fraksiyalarini eslatib o‘tadi va Aristotel turli xil hukumat turlarining Siyosatda fraktsiyalar ishlab chiqarish tendentsiyasini muhokama qiladi. Ayrim qadimiy bahslar ham, Konstantinopol ippodromidagi ikki arava poygasi guruhi o‘rtasidagi Nika tartibsizliklari kabi fraksiyaviy edi. Tarixda qayd etilgan eng qadimgi siyosiy guruhlar yoki fraksiyalarning bir nechta misollariga marhum Rim Respublikasining Populares va Optimates fraktsiyalari, shuningdek, Gollandiya Respublikasining Orangistlari va Staatsgezinde kiradi. Biroq, zamonaviy siyosiy partiyalar taxminan XVIII asr oxirida paydo bo‘lgan deb hisoblanadi; Ular odatda Evropa va Amerika Qo‘shma Shtatlarida paydo bo‘lgan deb hisoblanadilar, Buyuk Britaniyaning Konservativ partiyasi va Amerika Qo‘shma Shtatlarining Demokratik partiyasi tez-tez dunyoning “eng qadimgi doimiy siyosiy partiyasi” deb ataladi.

Ommaviy siyosiy partiyalar paydo bo‘lishidan oldin, saylovlar odatda ancha past darajadagi raqobatga ega edi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaror qabul qilish mumkin bo‘lgan yetarlicha kichik siyosatga ega edi va nomzodni mustaqil ravishda ga‘labaga undashi mumkin bo‘lgan alohida tarmoqlar yoki guruhlar hukmronlik qiladigan saylovlar o‘tkaziladi.

### Natijalar

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan partiyalar orasida O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi birinchi tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1991-yil 15-noyabrda ro‘yxatga olingan. 2005-yil iyulda partianing yangi Dasturi, 2004-yil noyabrda yangi tahrirdagi Ustavi tasdiqlandi. O‘zbekiston XDP har bir oila, mehnat kishisining millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishidan qat’i nazar, moddiy va ma’naviy farovon hayot kechirishi uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va insoniy erkinliklarini kafolatlash, sha’ni, qadr qimmati, tinchligini ta’minlashni o‘z vazifasi deb biladi.

2003 yil 4-5 oktabr — bir guruh tashabbuskorlar - kichik biznes vakillari, tadbirkorlar va fermerlardan iborat mulkdorlar qatlami, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari hamda boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifoda etadigan va himoya qiladigan umummilliy siyosiy tashkilot, ya’ni partiya tuzish tashabbusi bilan chiqishdi. 2003 yil 7 oktabr — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ushbu tashabbuskor guruh a’zolari bilan uchrashdi. 2003 yil 15 noyabr — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Ta’sis S’ezdi bo‘lib o‘tdi. Unda partiya Dasturi va Ustavi tasdiqlandi, Siyosiy Kengash hamda Markaziy nazorat-taftish komissiyasi tarkibi saylandi. Shu kuni Toshmatov Qobiljon Fattoxovich Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi etib saylandi. 2003 yil 3 dekabr — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston

Liberal-demokratik partiyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tdi.

Boshqa siyosiy partiyalar ham davlat ro‘yhatidan o‘tkazilib, o‘z siyosiy faoliyatlarini olib borib kelmoqda. Ushbu partiyalar soni bugungi kunda 5 tani tashkil etadi. Ular: O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi, O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi, Adolat sotsial-demokratik partiyasi, Milliy tiklanish, Ekologik partiya [1].

Etimborga molik jihat shundaki O‘zbekistonda sudyalarning partiya azosi bo‘lishlari taqiqlangan ayni bu orqali esa O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning qonundan bir-biriga qarshi qurol sifatida foydalanishi oldi olingan [2].

### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent: Akademnashr 2019.
2. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). COURT LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 517–520. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6493>